



UDK:811

Dilnoza SA'DULLAYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

FITRAT'S CREATIVE LEGACY IN THE INTERPRETATIONS OF HISAO KOMATSU AND BEGALI QOSIMOV

Annotation

This article discusses the contributions and research of the Japanese scholar Hisao Komatsu and the Uzbek scholar Begali Qosimov to Fitrat studies. It analyzes the perspectives from which they examined Fitrat's works and life. Information is provided about the innovations they introduced, as well as their scholarly articles and monographs written in this field.

Key words: Prose work, analysis, monograph, research, politics, education, art, history, theology, source, jadid, dramatic journalism, prose.

ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ФИТРАТА В ИНТЕРПРЕТАЦИЯХ ХИСАО КОМАЦУ И БЕГАЛИ КОСИМОВА

Аннотация

В данной статье рассматриваются вклад и исследования японского учёного Хисао Комацу и узбекского учёного Бегали Косимова в фитратоведение. Анализируются ракурсы, с которых они подошли к изучению творчества и жизни Фитрата. Приводятся сведения об их новаторских подходах, а также о написанных ими научных статьях и монографиях в данной области.

Ключевые слова: Прозаическое произведение, анализ, монография, исследование, политика, просвещение, искусство, история, богословие, источник, джадид, драматическая публицистика, проза.

FITRATNING IJODIY MEROSI XISAO KOMATSU VA BEGALI QOSIMOV TALQINLARIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada yapon olimi Xisao Komatsu va o'zbek olimi Begali Qosimovning Fitratshunoslikka qo'shgan hissasi va izlanishlari haqida fikr yuritildi. Ularning Fitrat ijodiga va hayotiga qaysi rakurslardan qaraganliklari tahlil etildi. Bu borada qilgan yangiliklari, yozgan ilmiy maqolalari va monografiyalari haqida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: Nasriy asar, tahlil, monografiya, tadqiqot, siyosat, maorif, san'at, tarix, ilohiyot, manba, jadid, dramatik publitsistika, proza.

Kirish. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodini o'rganish tahlil qilish, turli rakurslardan ochib berish ko'pgina adabiyotshunos olimlarning tadqiqot markazida bo'lib kelmoqda. Xorij olimlari ham Fitrat ijodiga qiziqish va ishtiyoq bilan qaraydi. Ayniqsa, yapon olimi professor Xisao Komatsu.

Xisao Komatsu nafaqat o'zbek tili "Chig'atoycha"ning sir-asroridan xabardor, balki Turkiston tarixining eng qorong'u nuqtalaridan tortib, uning eng nurlu jihatlarini ham yaxshi yoritib biladigan olim. Hali o'zini ko'rmay turib qo'lgan ishlari orqali e'tiborimizni tortgan, 80-yillarning oxirlaridan boshlab istar krill yozuvi bo'lsin, istar arab yoki lotin xatida bo'lsin, samimiy va ilmiy maktublar yozib, o'zbek olimlarining ham "boshini qotirgan" mana shu janobdir.

Professor Xisao Komatsuning yapon, ingliz, golland, turk, tatar, rus, hamda o'zbek tillarida tadqiqotlari chop etilgan. Fitrat haqidagi ilk salmoqli monografiyani yaratgan. Dunyo turkshunos olimlari e'tiborini o'zbek yozuvchisi Fitratga qaratishgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqot Hisao Komatsu va Begali Qosimovning Abdurauf Fitrat merosiga oid ilmiy ishlari, shuningdek, Fitrat tomonidan nashr etilgan matnlar va jadidchilik harakati haqidagi tanlangan adabiyotlar asosida tuzilgan. Jumladan, Begali Qosimovning "Milliy uyg'onish", "Maslakdoshlar" nomli kitoblari hamda Hamidulla Boltaboyevning "Fitrat va Jadidchilik" nomli kitobi, Yapon olimi Hisao Komatsuning "Markaziy Osiyo ixtilochilari: Abdurauf Fitrat" nomli monografiyasi tahlilga tortilib ulardagi o'xshash va farqli tomolariga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda uchta asosiy usul qo'llaniladi: qiyosiy tahlil, olimlar talqinidagi o'xshashlik

va farqlarni tekshirish uchun ishlatiladi; Fitrat asarlarini XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitda joylashtirishga qaratilgan tarixiy-kontekstual tahlil; va matn tahlili, asosiy matnlarning lingvistik va kontseptual xususiyatlarini baholash uchun foydalaniladi. Bundan tashqari, Komatsu tomonidan aniqlangan bir nechta kamroq ma'lum materiallar manba-tanqidiy yondashuv orqali qayta baholandi. Bu usullarning uyg'unligi Fitratning intellektual merosiga oid xalqaro va milliy qarashlarni tizimli ravishda birlashtirish imkonini berdi. Xisao Komatsuning yapon va turk tillarida nashr etilgan "Fitratning "Munozara"si xususida qaydlar"(Anqara, 1981) tadqiqoti turkshunos olimlar e'tiboriga tushgan. U "Munozara" ni chet elda saqlangan nusxalari, qiyosan o'zbek va rus tillaridagi nusxalarni chuqur sharhlab o'rganadi. Asarda islohchilik, islomchilik, turkchilik g'oyalarini payqaydi.

Olim asar "o'z qamrovi jihatidan siyosat, maorif, san'at, tarix, ilohiyot kabi yigirmadan ortiq jabhalarni o'zida birlashtirgani", "XX-asr boshlari Buxoro va Turkiston hayotidan juda qimmatli manba" hisoblanishini o'rinli qayd etgan. Hatto Fitrat asarining lug'at va so'zligi haqida ham nozik kuzatishlar olib borganki, yapon olimining o'zbek adibi ijodiga bunday izchil va chuqur yondashishi bizning fitratshunoslarimiz uchun ham o'rnakdir.

Xisao Komatsuning ingliz tilida yozilgan, keyinchalik turk tilida risola holda chop etilgan "1911-1928-yillarda Buxoro ziyolilari o'rtasida milliy farqlanishning tadriji" (Tokio, 1989) tadqiqotida Fitratning yigirmadan ortiq yo'nalishda faoliyat olib borganiga qaramay uning asosiy faoliyati adabiyot olimi ekanini e'tirof etadi. 10- va 20-yillardagi faoliyatini o'rganib "Chig'atoy gurungi"ni tahlil

etadi va bunda o'z yurtida, o'z davrida topilishi mushkul bo'lgan manbalarga asoslanadi. "Olim Fitratning ulkan ishlarini ta'kidlash barobarida, uning "O'zbek adabiyoti namunalari" asarini jiddiy tahlil etib, "Namunalarning asl matnda mavjud bo'lmagan "Mundarija"sini tiklashga urinadi" deb yozadi Professor Hamidulla Boltaboyev.

1996-yilda "Markaziy Osiyo ixtilochilari: Abdurauf Fitrat" monografiyasi yapon tilida e'lon qilinadi. Fitrat faoliyatiga bag'ishlangan ushbu yirik tadqiqot xorijdagi ilk monografiya hisoblanib, Fitratshunoslikni manbalar bilan boyitgan ilmiy manba sifatida va yangicha talqin sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Dastlab xorijiy manbalar bilan cheklangan olim O'zbekistonga bir necha ilmiy tashrifi natijasida o'zbek Fitratshunosligidagi talqin va qarashlarni jiddiy ko'rib chiqdi. Buning natijasi o'laroq, izlanishlarini birlamchi manbadagi talqinlar bilan boyitdi, chet el olimlari tahlillarini qaytadan tahlil qildi. Professor Hamidulla Boltaboyevning xabar berishicha Xisao Komatsu monografiyasini yaratish bilan birga fitratshunoslikka doir 250dan ortiq manba va ilmiy adabiyotlarni keltiradi, ularning salmoqli qismini Fitratning vatanida amalga oshirilgan ishlar egallaydi. Nisbatan kam fikr yuritilgan Fitratning talabalik yillarini ham chuqur o'rganishga harakat qilgan olimning bu monografiyasi Fitrat hayoti va adabiy faoliyatiga bag'ishlangan chet eldagi yagona monografik tadqiqot deya aytishga arziydi.

Olimning 2001-yilda Niderlandiyada "Uch jadidchi va o'zgarigan dunyo" maqolasi e'lon qilingan. Maqola uch jadidchi; Ismoilbey Gasprali, Abdurashid Ibrohimbek, Abdurauf Fitrat haqida triptix shaklida yozilgan. Maqola alohida portret shaklida bo'lishiga qaramay ularni biriktiruvchi ichki kompozitsiya va g'oya bor. Maqolada olim oldingi ishlariga qo'shimcha sifatida Fitratga siyosiy arbob, mustaqillik uchun kurashgan istiqololchi deya qaraydi.

Doktor Xisao Komatsu janoblarining tinimsiz izlanishlari natijasida Fitratning o'zbek olimlari bexabar bo'lgan asarlari "Johilona taassubga misol" ("SHo'ro" jaridasi, adad 2, sahifa 34), fors tilidagi "Buxoro vaziri Nasrulloh bey Parvonachi Afandi hazratlarina ochiq maktub" (Ta'rufi muslimin", adad 25, jild 2, sahifa 10) kabi asarlari topilishiga ko'mak berganini ham alohida ta'kidlash zarur.

Xisao Komatsu izlanishlari haqida o'zbek olimlari Sh. Turdiyevning "Fitrat jahon kezadi", I.G'aniyevning "Xorijda fitratshunoslik" maqolalarida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Fitratshunoslikda o'zbek olimlari orasida Begali Qosimovning o'rni katta. Ayniqsa, uning 1994-yilda nashr etilgan "Maslakdoshlar" kitobida Behbudiy, Ajziy va Fitrat haqida chuqur mulohazalar va ma'lumotlarni keltirgan. Bu kitobda Fitratning ham hayot yo'li ham ijodi haqida muhim ma'lumotlar va tahlillarni keltirib o'tgan. Fitratning tug'ilishidan boshlab hayoti, ta'lim, ish faoliyati, ijodi chuqur yoritilgan va konseptual yondashilgan.

Begali Qosimov Fitratni o'rganar ekan tug'ilishi, Buxoro va Istanbuldagi ta'limi, jadid maktablarini ochishdagi jonbozligi-yu, yaratgan asarlarining taqdiri, ularning yaralishiga turtki bo'lgan muhitni barobar tahlil qiladi.

Fitratning Istanbuldagi ta'limini 18 yoshida boshlaganligini (1909-1913) aytadi. Bu paytda Turkiya "Yosh turklar inqilobi" ta'sirida bo'lgan va bu jarayon Fitratga katta ta'sir ko'rsatgan. Olim siyosat va qizg'in ijod bilan band bo'lgan. Aslida uning she'rlari adabiy davralarga Turkiyaga ketishidan oldin ham tanilgan edi. Begali Qosimov buning isboti o'laroq Ne'matulla Muhtaram uni 1903-1904-yillarda tuzgan tazkirasiga kiritganini aytib o'tadi. Jumladan, uning "Mijmar" (Xushbo'y ud yoqiladigan cho'g'don) taxallusi bilan she'rlar yozganini xabar qiladi. "Suxandonlarning harifi" (pahlavoni) ekanligini ta'kidlaydi. Ota kasbiga ishora qilib, "sarrof" deb ataydi. Ruhiyatni g'oyat nozik bir ifoda etgan

tojikcha g'azalini namuna qilib keltiradi. Shularni ko'zda tutgan holda, Ayniy 1926-yilda tuzgan "Namunai adabiyoti tojik" kitobida Fitratni tojik sovet adabiyotining asoschisi deb ko'rsatadi.

Istanbul ta'limi davomida bir qancha asarlari forsiyda bosilgan. Bular "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila Buxoroli bir mudarrisning qilg'on munozarasi")ni keltirish mumkin. Begali Qosimov dramatik publitsistikaga moyil bu asarni zamonning zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog'onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqida ikki xil ko'z qarashga ega bo'lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan deydi. "Munozara"da chinakam e'tiqod bid'at va xurofotga qarshi tura olishi ko'rsatilgan. Bu jadidchilik yo'lidagi ilk nazariy asardir.

"Munozara" Buxoro amirligida ta'qiqlab qo'yilganiga qaramasdan keng tarqaldi. U haqida bahs-munozaralar bo'lib o'tgan. Xalqning ko'zi ochilishida muhim rol o'ynadi. Ayniy "Namunai adabiyoti tojik"da "Munozara" davr taraqqiyotiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatdi", - deb yozgan. Asar ulug' Yunon faylasufi Aflotun asarlari uslubida, ya'ni bahs-suhbat tarzida yozilgan "Munozara" borasida xorijda nashr etilgan va Buxorodagi eng "munozara"li masala-jadid va qadim kurashini aks ettirgan uchun bu asarning o'z yurtida tarqalishi juda qiyin kechgan. S.Ayniyning guvohlik berishicha, "Munozara"ning bir qismi yo'lda rus askarlari qo'lga tushib yo'q qilingan bo'lishiga qaramay, u Buxoroga yashirin olib kelingan. Fitratning boshqa bir zamonoshi Fayzulla Xo'jayevning qaydiga ko'ra, rus askari nafaqat Fitrat asarini, balki uni o'qigan, keltirgan kishilarni ham qattiq ta'qib ostiga olgan. Ta'qiblarga qaramay, Mahmudxo'ja Behbudiy tavsiyasi bilan Hoji Mu'in Shukrulloh o'g'li tomonidan tarjima qilingan. Asarning noshiri ham, ilk tanqidchisi ham Behbudiy bo'lgan. U asar haqida "Usuli jadida maktablarining naflig'i va funun zamonida tahsilning buxoriylar uchun luzumi to'g'risida Farangi afandi ila Mudarrisi Buxoriy janoblari oralarda bo'lg'an bahs va suhbat "Munozara" ismida bir risola shaklida forsiy tilga nashr bo'libdir. Inshoolloh, bu risola Buxoriylarning uyg'onmoqig'a bois bo'lib, "Munozara" muharririni rahmat ila yod etarlar", - deya ta'kidladi.

Begali Qosimov yo'l ocherkini eslatuvchi bu asarda Buxoroning maishiy-siyosiy turmush manzaralari dunyo ko'rgan bir kishining nigohi orqali tasvir etilgani, muallif yeri, suvi, havosining o'xshashi yo'q, xalqi g'oyat mehnatkash, hunarmand bir xalqning o'g'ir turmushidan so'z ochgani, uning sabablarini tahlil etganligini ta'kidlaydi. Asardan chiqarilgan xulosa deya mahkamalarda pora emas, qonun ustuvor turishi kerakligini, aks holda mehnat qanchalik ko'p qilinmasin, uquv va salohiyat qanchalik kuchli bo'lmasin, kutilgan samarani bermasligini ta'kidlaydi olim. Kitobda iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotning asosiy g'ovlari ishlab chiqarishdagi o'rta asrchilik, qonunsizlik ekani aytiladi. Fitratning "Sayyohi hindi" asarining ahamiyatini bu yerda qayd etmasdan o'tolmaymiz, asar nafaqat Buxoroda balki uning tashqarisida ham qiziqib o'qildi.

Fitrat adibgina emas, Buxoro inqilobining g'oyaviy-tashkiliy rahbarlaridan, so'ngroq esa Buxoro Xalq Jumhuriyatining muassislaridan biri, inqilobchi, siyosatchi, arbob sifatida ham shuhrat topgan edi. Afsuski, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati mutaxassislarimiz tomonidan ko'p ham tilga olinavermaydi deya kuyunadi Begali Qosimov. Fitratning "Chig'atoy gurungi"ni yo'lga qo'yganini Toshkentdagi eng katta ishlaridan deya tilga oladi. 1918-yilning oxiri va 1919-yilning boshlarida yo'lga qo'yilgan "Chig'atoy gurungi" mutlaq qonuniy va madaniy-adabiy tashkilot bo'lgan. Xalqimizning XV asrdagi nomini jamiyatimizga berilishi, Navoiy davrining ko'p tomonlarini ibrat qilib olinishi bunga dalil.

Jamiyatning nomlanishida ham, uning o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifasida ham uzoq yillar o'quvchilar miyasiga quyib kelinganidek, o'tmishni qandaydir ilohiylashtirish, ayniqsa, uni qaysidir boshqa millatning madaniyatiga zid qo'yish yo'q edi. Millat o'z qadr qimmatini, tarix-taqdirini angelayotgan, uyg'onayotgan payt edi. Uyg'onish ota-onani, el-yurtini tanishdan, o'zlikni anglashdan, o'z tarixi, madaniyati bilan iftixor eta olishdan boshlanardi.

“Chig'atoy gurungi”da tilga alohida ahamiyat berilgan. Fitrat “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir, bilasizmi? – Turkcha! deya o'zining “Tilimiz”maqolasida fikrini isbotlab ko'rsatgan.

Jamiyat qoshida imlo to'dasi ham ish olib borgan va til va imlo masalalariga bag'ishlangan konferensiya uyushtirilgan. Fitrat bu konferensiyada ma'ruza qilgan. Til millatning shon-u sharafi, or-nomusi ekanini so'zlagan. “SHe'rdagi hijo-barmoqning asli eski turkiy vazn ekanligini ilmiy asoslab, amaliy namoyish etganlar”. Barmoq vaznida she'rni boshlab Cho'lpon yozdimi, men yozdimmi-esimda yo'q, faqat shunisi aniqki, barmoq vaznini nazariy jihatdan yoqlab chiqqan birinchi o'zbek millatchisi men edim” deb yozadi Fitrat 1936-yilda”.

Begali Qosimov Fitrat hayoti va ijodini tahlil qilar ekan hech bir jihatini ko'zdan qochirmaydi. 1920-yilda “Tong” jurnalining bosmadan chiqishi, unda Fitrat Cho'lpon, Julqunboy kabi jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etganini yozadi. Olim “Maslakdoshlar”da yozishicha Cho'lpon Fitratning “O'g'uzxon”, “Chin sevish”, “Hind ixtilochilari” kabi asarlarini ham aynan Toshkent davrida yozgan” deya keltirganini aytadi.

“Chin sevish” va “Hind ixtilochilari” (1920-1923-yillarda chop etilgan) asarlarini Begali Qosimov talil qilish

davomida bu ikki asar Hamid Olimjon aytganidek bir asarning ikki varianti emas, balki bir mavzudagi ikki asar deyish to'g'ri bo'ladi deydi. “Chin sevish”da boshlangan “Hindistonni tozartirish” g'oyasi “Hind ixtilochilari”da davom ettiriladi degan fikrni keltiradi olim.

Tahlil va natijalar. Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat merosining o'rganilishiga doir Hisao Komatsu va Begali Qosimov qarashlari yoritildi:

Abdurauf Fitrat merosining o'rganilishiga doir Hisao Komatsu va Begali Qosimov qarashlari birinchi bor qiyosiy-metodologik yondashuv asosida tahlil qilindi.

Komatsu tomonidan aniqlangan, ilgari o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy muomalaga kiritilmagan ayrim Fitrat matnlari manbashunoslik nuqtayi nazaridan qayta baholanib, ularning ilmiy ahamiyati belgilandi.

Fitrat ijodini talqin qilishda Komatsuning xalqaro-tarixiy yondashuvi va Qosimovning milliy-konseptual yondashuvi asosida Fitratshunoslikning integrativ tahlil modeli taklif etildi hamda Fitratning 1910–1930 yillardagi ijodiy taraqqiyoti yangi konseptual tasnif asosida izohlandi.

Xulosa va takliflar. Fitrat nasriy asarlari o'zbek prozasi rivojiga sezilarli ta'sir etgan. Ko'tarilgan masalalar Turkiston milliy uyg'onishini ta'minlagan omillardan biri bo'lgan. Xulosa o'rnida aytish joizki, Abdurauf Fitratning ijodiy faoliyati va hayoti tarixning murakkab, qaltis paytlarida millat va vatanga xizmat qilishning namunasidir. Bunday yozuvchining hayotini va ijodini o'rganish ham savobli bir ishdir. Begali Qosimov izlanishlarida esa bu kabi zalvorli ishlar talaygina.

Yapon olimi Xisao Komatsu va o'zbek olimi Begali Qosimovni birlashtiruvchi nuqta bu - Fitrat. Har ikkisinin ham fitratshunoslik uchun qilgan ishlari tahsinga loyiq.

ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. Fitrat va Jadidchilik. –Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 238
2. Boltaboyev H. Fitrat va Jadidchilik. –Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 23
3. Boltaboyev H. Fitrat va Jadidchilik. –Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 241
4. Turdiyev Sh. Fitrat jahon kezadi // Fan va turmush. –1991. – 12 son.
5. G'aniyev I. Fitrat va fitratshunoslik. –Toshkent:Fan, 2005. – b.71.
6. Qosimov.B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994. – B.75.
7. Boltaboyev H. Fitrat va Jadidchilik. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B.138.
8. Behbudiy M. “Munozara”haqida //Turkiston viloyatining gazetasi. 1991-yil 29 sentabr. 73-son.
9. Begali Qosimov. Maslakdoshlar:Behbudiy, Ajziy, Fitrat. -Toshkent: Sharq, 1994.- B 78.
10. Begali Qosimov. Maslakdoshlar:Behbudiy, Ajziy, Fitrat-Toshkent: Sharq, 1994.- B 99.